NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA

YAKUNIY HISOBOT

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Davlat oliy ta’lim tashkiloti

70711002 – Robototexnika

Magistratura

www.nqaae.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

70711002 – Robototexnika

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA YAKUNIY HISOBOT

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI

	**Rais: USMONOV MAQSUDJON MUHAMMADJON O‘G‘LI** **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti** **Katta o'qituvchi**
	**A’zo: MILTIADES D. LYTRAS** **National Commission for Academic Accreditation & Assessment (NCAAA, Saudiya Arabistoni)** **fan doktori (DSc)**

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260112
Xulosa raqami	1436
Xulosa sanasi	15.07.2026
Ta’lim tashkilotining to‘liq nomi	“MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI” DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma’lumotlari	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur Shox ko‘chasi, 108-uy. Litsenziya: № 10-000825, 20.01.2003. Guvohnoma: MAS № 0000490, 07.08.2026.
Baholangan ta’lim dasturi nomi	Robototexnika
Yo‘nalish / mutaxassislik kodi	70711002
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O‘rta maxsus, kasbiy, oliy ta’limni va oliy ta’limdan keyingi ta’limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA’LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta’lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: *License/Certificate of Educational Institution:*	№ 10-000825, 20.01.2003
2. Ta’lim tashkilotining turi: *Type of Educational Institution:*	Davlat oliy ta’lim tashkiloti
3. Ta’lim dasturi kodi va nomi: *Code and Name of Study Programme:*	70711002 – Robototexnika
4. Ta’lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in English:*	70711002 – Robotics
5. Ta’lim dasturining rus tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in Russian:*	70711002 – Робототехника
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: *Offered in Cooperation with:*	—
7. Ta’lim tili: *Medium of Instruction:*	o‘zbek / rus
8. Ta’lim shakli: *Mode of Study:*	kunduzgi
9. Ta’lim dasturi hajmi: *Study Programme Credits:*	120 kredit
10. Ta’lim dasturi davomiyligi: *Duration of Study Programme:*	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: *Level in National Qualifications Framework:*	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: *Qualification Title:*	Robototexnik tizimlar bo‘yicha mutaxassis, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo‘shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: *Additional Qualifications Awarded:*	—
14. Ta’lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: *Type of Document Issued Upon Completion:*	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta’lim oluvchilarning me’yoriy miqdori (to‘liq davr): *Maximum Number of Students (full period):*	16 nafar
16. Ta’lim dasturini o‘qitish manzili: *Address Where the Study Programme is Delivered:*	Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur Shox ko‘chasi, 108-uy

4. BAHOLASH YO‘NALISHLARI VA MEZONLAR BO‘YICHA NATIJALAR

Har bir yo‘nalish bo‘yicha baho (muvofiq / muvofiq emas) va har bir mezon bo‘yicha baho (muvofiq / qisman muvofiq / muvofiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	**Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash**	**Muvofiq**
1.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish bo‘yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;**	Muvofiq
1.2.	*ta’lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;*	Muvofiq
1.3.	*ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangani;*	Muvofiq
1.4.	*mehnat bozori va ta’lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalarini aniqlash bo‘yicha monitoring tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
2.	**Ta’lim dasturlari**	**Muvofiq**
2.1.	*manfaatdor tomonlar ishtirokida ta’lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta’lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta’lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;**	Muvofiq
2.2.	*ta’lim dasturining milliy ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
2.3.	*ta’lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangani;*	Muvofiq
3.	**O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash**	**Muvofiq**
3.1.	*ishchi o‘quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;**	Muvofiq
3.2.	*o‘quv jarayonining ta’lim dasturida belgilangan o‘quv natijalariga erishishga yo‘naltirilgani;**	Muvofiq
3.3.	*o‘quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;*	Muvofiq
3.5.	*ta’lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o‘quv natijalariga muvofiqligi;*	Muvofiq
3.6.	*talabalarning baholash natijalari bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;*	Muvofiq
3.7.	*ta’lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tizimning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	**Talabalar faoliyati**	**Muvofiq**
4.1.	*ta’lim dasturi bo‘yicha qabul talablari aniq belgilangani, o‘qishga qabul qilish shaffof tarzda yo‘lga qo‘yilgani;*	Muvofiq
4.2.	*qabul parametrlarining ta’lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;**	Muvofiq
4.3.	*talabalarning o‘qishini ko‘chirish, kursdan-kursga o‘tkazish (qoldirish), o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;**	Muvofiq
4.4.	*talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
5.	**Inson resurslari**	**Muvofiq**
5.1.	*ta’lim dasturi uchun belgilangan me’yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;**	Muvofiq
5.3.	*yangi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha aniq rejaning mavjudligi;**	Muvofiq
5.4.	*kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
6.	**Moddiy-texnik ta’minot**	**Muvofiq**
6.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo‘llanma (ko‘rsatma)lar bilan ta’minlangani;**	Muvofiq
6.2.	*fanlar kesimida o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta’minlangani;**	Muvofiq
6.3.	*o‘quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta’lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;**	Muvofiq
6.4.	*inklyuziv ta’lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o‘quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;*	Muvofiq
6.5.	*axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta’lim dasturlariga mos o‘quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta’minlangani, o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	*raqamli ta’lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari);*	Muvofiq
6.7.	*ta’lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.*	Muvofiq

5. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar va tizimli boshqaruv mexanizmlari shakllantirilgan bo‘lib, mas’ul tarkibiy tuzilmaning vazifalari, vakolatlari hamda funksiyalari tegishli me’yoriy hujjatlar asosida belgilangan. Robototexnika va intellektual tizimlar kafedrasining faoliyati universitetning 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan strategik rivojlanish rejasi bilan uyg‘unlashtirilgan hamda dastur maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan. Ta’lim jarayonini tashkil etishda yuqori malakali professor-o‘qituvchilar salohiyatidan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lib, kafedraning ilmiy salohiyati 46 foizni tashkil etadi. Dastur faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta’minlash mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish jarayonlarining strategik rejalashtirish bilan o‘zaro bog‘liqligi ta’minlangan. Mazkur yondashuv ta’lim dasturining barqaror faoliyat yuritishi, mavjud resurslardan samarali foydalanish va rivojlanish maqsadlariga izchil erishish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, tashkiliy-boshqaruv tizimi, strategik rejalashtirish, resurs ta’minoti va xavf-xatarlarni boshqarish mexanizmlarining belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga muvofiqligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta’lim dasturlari yo‘nalishi

Ta’lim dasturini ishlab chiqish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayonlari milliy qonunchilik talablari hamda universitetning ichki me’yoriy tartiblariga muvofiq tashkil etilgan. Dastur mazmunini shakllantirish va takomillashtirishda ish beruvchilar, soha korxonalari vakillari hamda professor-o‘qituvchilarning ishtiroki ta’minlangan bo‘lib, ularning takliflari va amaliy ehtiyojlari inobatga olingan. “Robototexnika muhandisi” kvalifikatsiyasi, kutilayotgan ta’lim natijalari va bitiruvchilarda shakllantirilishi belgilangan kasbiy kompetensiyalar davlat ta’lim

standartlari, Milliy malaka ramkasi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan. O‘quv rejalari va fan dasturlarida robototexnika sohasidagi xalqaro ilg‘or tajribalar, zamonaviy texnologik yondashuvlar va muhandislik faoliyatining dolzarb talablari aks ettirilgan. Mexanika, elektronika va dasturlash fanlarining o‘zaro integratsiyasi orqali magistrantlarning murakkab robototexnik tizimlarni loyihalash, boshqarish va amaliy muhandislik masalalarini hal etishga oid kompetensiyalarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Ta’lim dasturining maqsadlari, mazmuni, kutilayotgan natijalari va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga javob berishi aniqlandi.

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash yo‘nalishi

O‘quv jarayonini tashkil etish va talabalar bilimini baholash tizimi Milliy malaka ramkasi, davlat ta’lim standartlari hamda MIT, Stanford, ETH Zurich, Carnegie Mellon va Oxford kabi yetakchi xorijiy universitetlarning ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda shakllantirilgan. Ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Talabalar bilimini baholash mezonlari shaffof va aniq belgilangan bo‘lib, 100 ballik tizim doirasida ma’ruza mashg‘ulotlari uchun 25 ball, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun 25 ball hamda yakuniy nazorat uchun 50 ball ajratilgan. Magistrantlarning amaliy tayyorgarligini ta’minlash maqsadida Robotic Lab, HIKVISION, Kiberxavfsizlik markazi va EPAM kabi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur hamkorlik imkoniyatlari zamonaviy robototexnik yechimlar bilan ishlash, muhandislik muammolarini amaliy jihatdan o‘rganish va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. O‘quv jarayonining izchil tashkil etilishi, baholash mezonlarining aniqligi va amaliy tayyorgarlik uchun yaratilgan hamkorlik imkoniyatlari mazkur yo‘nalish bo‘yicha belgilangan akkreditatsiya talablariga muvofiqlikni ta’minlagani qayd etildi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo‘nalishi

Talabalarni o‘qishga qabul qilish, ularning akademik harakatini boshqarish va qo‘llab-quvvatlash tizimi amaldagi qonunchilik hamda universitetning ichki me’yoriy hujjatlari asosida tashkil etilgan. Qabul jarayoniga oid mezonlar, talablar va natijalar rasmiy veb-sayt hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali ochiq e’lon qilinib, abituriyentlar uchun axborotdan foydalanishda shaffoflik va teng imkoniyatlar ta’minlangan. Qabul jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan murojaatlar, apellyatsiyalar va

shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlari belgilangan bo‘lib, talabalar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tashkiliy tartiblar mavjud. Qabul parametrlarini shakllantirishda o‘quv auditoriyalarining sig‘imi, professor-o‘qituvchilar salohiyati, moliyaviy imkoniyatlar hamda mehnat bozori ehtiyojlari tahlili inobatga olingan. Qabul ko‘rsatkichlarining mavjud resurslar va strategik rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirilishi ta’lim jarayonining barqarorligini ta’minlash hamda magistrantlar uchun zarur akademik sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. O‘rganish natijalari talabalarni qabul qilish, akademik harakatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bo‘yicha belgilangan akkreditatsiya mezonlari bajarilganligini ko‘rsatdi.

5-bob. Inson resurslari yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur pedagog, boshqaruv, texnik va o‘quv-yordamchi xodimlar tarkibi tasdiqlangan shtatlar jadvali asosida shakllantirilgan. Kafedrada jami 13 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritib, ularning 47 foizi ilmiy daraja va unvonga ega bo‘lib, tarkibida 2 nafar fan doktori hamda 4 nafar falsafa doktori (PhD) mavjud. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati va fanlar bo‘yicha mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj muntazam tahlil qilinib, kadrlar tarkibini rivojlantirishga qaratilgan 3–5 yillik istiqbolli rejalar ishlab chiqilgan. Iqtidorli magistrantlar va yosh tadqiqotchilar hisobidan istiqbolli pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, xorijiy ekspertlarni o‘quv jarayoniga jalb etish orqali ilg‘or ilmiy tajribalarni o‘zlashtirish va magistrantlarning kasbiy hamda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Robototexnika sohasida ilmiy darajaga ega mutaxassislar salohiyatidan foydalanish magistratura ta’limining ilmiy va amaliy yo‘nalganligini ta’minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, kadrlar tarkibini shakllantirish, inson resurslarini istiqbolli rejalashtirish va ilmiy-pedagogik salohiyatni rivojlantirish bo‘yicha belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiqlik holati tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta’minot yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur zamonaviy moddiy-texnik infratuzilma shakllantirilgan bo‘lib, mavjud o‘quv auditoriyalari, ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar va ustaxonalar robototexnika mutaxassisligining o‘quv hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati talablariga muvofiq jihozlangan. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish uchun zarur axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalar bilan

ta’minlanganlik nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi. O‘quv binolarida inklyuziv ta’lim talablariga mos sharoitlar yaratilgan bo‘lib, ta’lim resurslaridan foydalanishda teng imkoniyatlarni ta’minlashga e’tibor qaratilgan. Axborot-resurs markazi zamonaviy texnik jihozlar, ochiq va elektron o‘quv zallari hamda o‘quv va ilmiy adabiyotlar fondi bilan ta’minlangan. Robototexnika laboratoriyalari va robot-platformalardan foydalanish imkoniyatlari magistrantlarning murakkab texnik tizimlarni loyihalash, tajriba-sinov ishlarini bajarish va ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mavjud moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta’minoti va ixtisoslashtirilgan laboratoriya infratuzilmasi magistratura dasturining o‘quv hamda tadqiqot maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni ta’minlaydi. Baholash natijalariga ko‘ra, moddiy-texnik ta’minot, inklyuziv ta’lim muhiti va ilmiy-amaliy resurslar bo‘yicha belgilangan akkreditatsiya talablari bajarilgan deb topildi.

6. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to‘sqinlik qiluvchi):

Ta’lim dasturini yo‘lga qo‘yish uchun to‘sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo‘lgan juz’iy kamchiliklar:

- ✓Kafedraning ilmiy darajali pedagoglar ulushi (46–47 foiz) yetarli bo‘lsa-da, robototexnika yo‘nalishiga ixtisoslashgan fan doktorlari sonini oshirish zarurati mavjud.
- ✓Magistrlik tadqiqotlarida xalqaro ilmiy bazalar va yetakchi universitetlar resurslaridan foydalanishni kengaytirish lozim.
- ✓Sanoat hamkorlari bilan qo‘shma tadqiqot loyihalari va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish kerak.

7. TA’LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

- ✓Robototexnika yo‘nalishida fan doktorlari tayyorlash va doktoranturaga yo‘naltirish rejasini amalga oshirish.
- ✓Magistrantlarning xalqaro ilmiy bazalardan foydalanishini kengaytirish va natijalarni xalqaro jurnallarda chop etishni rag‘batlantirish.
- ✓Robotic Lab, HIKVISION, EPAM kabi hamkorlar bilan qo‘shma tadqiqot loyihalari va startap tashabbuslarini rivojlantirish.

- ✓Laboratoriyalarni zamonaviy robot-platformalar va intellektual tizimlar bilan bosqichma-bosqich boyitish.

8. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA YAKUNIY XULOSA

70711002 – “Robototexnika” magistratura ta’lim dasturi bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlar, o‘quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta’lim jarayonini tashkil etish va baholash mexanizmlari, professor-o‘qituvchilar salohiyati hamda moddiy-texnik ta’minot belgilangan akkreditatsiya mezonlari asosida kompleks o‘rganildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ta’lim dasturini boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari shakllantirilgan, strategik rejalashtirish va xavf-xatarlarni boshqarish mexanizmlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgan. Dastur mazmuni davlat ta’lim standartlari, Milliy malaka ramkasi, xalqaro ilg‘or tajribalar va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq, ish beruvchilar hamda soha mutaxassislari ishtirokida ishlab chiqilgan. O‘quv jarayoni yetakchi xorijiy universitetlar tajribasini inobatga olgan holda tashkil etilgan bo‘lib, talabalar bilimini baholashning shaffof va aniq mezonlarga asoslangan uch bosqichli tizimi joriy etilgan. Magistrantlarning amaliy va ilmiy-tadqiqot tayyorgarligini rivojlantirish uchun soha tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Talabalarni qabul qilish jarayonlarida ochiqlik va teng imkoniyatlar ta’minlangan, qabul parametrlari mavjud resurslar hamda strategik rivojlanish maqsadlariga mutanosib shakllantirilgan. Kafedrada 13 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritib, ularning 47 foizi ilmiy daraja va unvonga ega, shuningdek, istiqbolli pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish va xorijiy mutaxassislarni jalb etish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Zamonaviy robototexnika laboratoriyalari, robot-platformalar, o‘quv auditoriyalari va axborot-resurs markazi magistratura dasturining o‘quv hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni ta’minlaydi. Baholash yakunlariga ko‘ra, oltita bob doirasidagi 27 ta akkreditatsiya mezonining barchasi bo‘yicha muvofiqlik aniqlangan, bildirilgan tavsiyalar esa dasturni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmaydigan va uning sifatini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida qayd etilgan. Umuman olganda, 70711002 – “Robototexnika” magistratura ta’lim dasturi belgilangan akkreditatsiya talablari va sifat mezonlariga MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	03.08.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	6-son
Yakuniy qaror:	**AKKREDITATSIYADAN O‘TDI**



Guvohnoma (MAS № 0000490) haqiqiyligini NQAAE davlat akkreditatsiyasi reyestrida tekshirish uchun QR kod

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot